

BOLALAR NUTQIDA GAPNING IFODALANISH MAQSADIGA KO'RA TURLARI

Nasiba Sayidmaxamadovna SAYIDIRAXIMOVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrası
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

ТИПЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ПО ЦЕЛИ ВЫСКАЗЫВАНИЯ В ДЕТСКОЙ РЕЧИ

Насиба Сайидмахамадовна САЙИДРАХИМОВА

Кандидат филологических наук, доцент
Кафедра узбекского языка и классической восточной литературы
Международная исламская академия Узбекистана
Ташкент, Узбекистан Tashkent, O'zbekiston

TYPES OF SENTENCES BY PURPOSE OF STATEMENT IN CHILDREN'S SPEECH

Nasiba Sayidmakhamadovna SAYIDRAKHIMOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Department of Uzbek language and classical oriental literature
International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan sayidirahimova@navoiy-uni.uz

UDC (UO'K, УДК): 811.512.133-11

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Sayidiraximova N. S. Bolalar nutqida gapning ifodalanish maqsadiga ko'ra turlari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 48-59.

<https://doi.org/10.36078/1702969169>

Received: November 17, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. So'nggi yillarda nutqiy xodisalar tadqiqida borgan sari grammatikaning ayrim xodisalarini emas, balki semantik — grammatik kategoriyalarning shakllanishi haqidagi umumlashgan ko'rinishlarini o'rganish ham nazarda tutilmoqda. Ushbu holat to'g'ridan-to'g'ri zamonaviy lingvistika uchun xarakterli bo'lgan an'analar: til birliklari ma'nolarini o'rganish, sintaksisning semantikaga murojaati va, eng asosiysi, so'zlovchi insonga bo'lgan mo'ljal (oriyentatsiya), ya'ni yangicha antroposentrik paradigma bilan bog'liq. Insonning tilni birinchi til sifatida egallashi; nutq ontogenezi masalasi, bolalarning dastlabki til — ona tilini egallashlarida filogenezi ontogenezni takrorlaydimi, bu jarayonda nutq ontogenezining shakllanish bosqichlari qanday kechadi va ular an'anaviy tilshunoslik bo'yicha belgilangan gipotezalarga amal qiladimi, kabi bir qator savollarga javob izlash, ushbu jarayonni yangicha paradigmadagi tahlil qilishni taqozo etmoqda. Shu bois, ushbu maqolada, kichik yoshdagi bolalarning tilni egallashidagi an'anaviy tilshunoslikda belgilangan tizimni takrorlamaydigan holat, ya'ni tilni egallash bolalar nutqida fonetik tizim birligi — nutq tovushlari, leksik — semantik tizim birligi — so'z va grammatika bosqichida emas, balki sintaktik birlik — gap bilan boshlanishi, bu o'rinda, sintaksisni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning nutqida qo'llaniladigan gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: antroposentrik paradigma; nutqiy ontogenezi; lisoniy birliklar; filogenezi; agens; pasiyens; subyekt; nutq akti; paradigma; sintagmatik imkoniyat; analogik struktura; retsiyent.

Аннотация. В последние годы изучение речевых актов все больше ориентируется на изучение не только конкретных грамматических категорий, но и общих проявлений

формирования семантико-грамматических категорий. Это напрямую связано с традиционными характеристиками современной лингвистики: изучением значений языковых единиц, обращением синтаксиса к семантике и, самое главное, объективацией (ориентацией) говорящего на человека. Современная лингвистика включает в себя ряд вопросов: овладение языком; вопрос о филогенезе и онтогенезе речи; следует ли развитие речи у детей гипотезам, установленным в традиционной лингвистике, и т. д. В статье предполагается анализ этих проблем в соответствии с антропоцентрической парадигмой. В связи с этим рассматриваются такие вопросы, как лингвистические особенности речи детей; овладение ими синтаксисом; структура и идентификация типов предложений в соответствии с целью высказывания.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма; онтогенез речи; языковые единицы; филогенез; агенс; пациенс; субъект; речевой акт; парадигма; синтагматическое отношение; аналогическая структура; реципиент.

Abstract. In recent years, the study of speech acts has increasingly focused on the study of specific grammatical categories, as well as general manifestations of the formation of semantic-grammatical categories. This case is directly related to the traditional characteristics of modern linguistics: the study of the meanings of linguistic units, the appeal of syntax to semantics and, most importantly, the objectification (orientation) of the speaker to a person, that is, the new anthropocentric paradigm. Modern linguistics deals with a number of issues: language acquisition; the question of phylogenesis and ontogenesis of speech; whether the development of speech by children follows the hypotheses established in traditional linguistics, etc., involves the analysis of these problems according to a completely new paradigm. In this regard, this article discusses such issues as linguistic features of children's speech; their mastery of syntax; structure and identification of types of sentences according to the purpose of the statement.

Keywords: anthropocentric paradigm; ontogenys of speech; linguistic units; phylogenys; agens; patsiens; subject; speech act; paradigm; syntagmatic relationship; analogical structure; recipient.

Kirish. Ma'lumki, gap bola nutqining rivojlanishida asosiy rolni o'ynaydi. O'zida ma'lum ifodani, murojaatni va xabarni ma'lum qilishi tufayli gap tafakkur va muloqot quroli sifatida nutqning asosiy birligi sanaladi. Ona tilini o'zlashtirish asosan turli tipdagi gaplarni o'zlashtirish jarayonida kechadi. So'z birikmalari aynan gaplarda shakllanganidek, alohida morfologik kategoriyalar ham gaplar tarkibida o'zining tashqi ifodasi bilan uyg'unlashadi. Bola nutqining shakllanishi ham gaplarda ular tomonidan kiritilgan element (so'zlar)ning miqdor jihatdan ko'ra murakkablashishi va bu elementlarning o'zaro munosabatiga bog'liq bo'ladi. Gap taraqqiyotining asosiy punkti uning so'z-gap sifatida ifodalanadigan tipi sanaladi.

Asosiy qism. So'nggi yigirma yil mobaynida bolalar egosentrik nutqining tadqiqi, xususan, L. Kohlberg, J. Yaeger, E. Hjertholm, P. Goudena, J. Wertsch'larning ishlari L.S. Vigotskiyning nazariy va eksperimental analizi xulosalarini tasdiqlaydi. Birinchi tadqiqotda bunday tadqiqot faqat to'rt-olti

yoshdagi bolalar nutqi uchun xarakterli bo‘la olishi; uning rivojlanishi to‘lqinsimon (o‘shish, ko‘tarilish, cho‘kish xususiyatiga ega), biroq J. Piaje taklif qilganidek, monoton cho‘kish xarakteriga ega emasligi ko‘rsatiladi (9).

S. Dobkinning eslashicha, talabaligining so‘nggi yillari unga 3 kitob qattiq ta‘sir etadi. Ulardan biri ajoyib rus tilshunosi A. A. Potebnyaning “Fikr va til” (“Misl i yazik”) kitobi edi. Bu kitobda (1862), keyingisi — “Rus grammatikasi yuzasidan maktublar” kitobidagi singari Potebnya bolalar nutqiga murojaat qiladi. U bolalar nutqidagi bir so‘zli ifodalarni xarakterlash bilan birga, ularni appersepsiya akti sifatida ta‘riflaydi. U ikki fikriy birlik: izohlanuvchi (subyekt) va izohlovchi predikatni belgilaydi (10, 81–82). Bunday gapda so‘z orqali faqat kesim ifodalanadi. Potebnyaning fikricha, kesim appersepsiya ifodasi singari butunlay alohida so‘zda qoladi. Eganing appersepsiya so‘z orqali ifodalanishi — tilning bolalar nutqida bir xil ko‘rinishga ega bo‘lmagan, uzoq davr mobaynidagi rivojlanishi mahsuli sanaladi (10, 138–139).

Bu o‘rinda shuni ta‘kidlash joizki, L.S.Выготский o‘z ishlarida bir bo‘lakli replikalarning dialogda predikativligi haqida gapirganda (L.P.Yakubinskiyning emas, balki,) aynan A. A. Potebnyaning fikriga tayanadi. A. A. Potebnya fikriga qo‘shilgan holda biz ham bolalar nutqidagi birinchi ifodalarni (masalan, *dada, opa, aya, nanna*) predikativdir, deya olamiz (12).

A. N. Gvozdev ham bolalar nutqidagi bunday so‘z-gaplarni o‘z ma‘nolariga ko‘ra, qandaydir xabarni ifodalovchi tugal butunlik deb belgilaydi (6).

Bolalar nutqidagi bir so‘zli ifodalar bilan zamonaviy tadqiqotchilar ham shug‘ullanadilar. Jumladan, E. Bates, P. G. Greenfield, J. Smith, P. Zuhov va boshqalar bola nutqidagi bunday ifodalarda uning o‘zi uchun eng ahamiyatli bo‘lgan yaxlit vaziyatning informativ elementi ifodalanishi, uning qolgan qismi esa tafakkurlanishi va sensomotor bosqichda qolishini ta‘kidlaydilar (1, 30). Bunday holatda bolalar nutqidagi birinchi so‘z ifodalar quyidagi strukturaga ega bo‘ladi: “mana shu (dannoye) — (u uchun) “yangi” bo‘lsa yoki qayerda topik — tafakkurlansa (presupposed) situatsiya qismi, situatsiyalangan komment esa — uning elementi sanaladi. E. Beyts fikricha, situatsiya ma‘noli qismining ajralish mexanizmi mo‘ljal refleks mexanizmi bilan bog‘liq, jismni (fon) sharoitdan ajratishda — bola uning e‘tiborini ko‘proq tortgan narsanigina so‘z orqali ifodalaydi. Uning nutqidagi “yangi”ning birlamchi ifodalanishi tasodifiy emas, chunki aynan farq ularda birinchi bo‘lib anglanadi (1, 35). Fundamental til mexanizmlarining kognifikativ mexanizmlarga bog‘liqligini J. Bruner ham belgilaydi. U “topik-komment” predikatsiyasi mexanizmini inson tabiiy e‘tibori mexanizmiga bog‘liq deb sanaydi (3).

Ye. I. Iyesenina termini bilan aytganda, qachonki turli tipdagi: siljuvchi, mimik va intonasion ifoda ishoralari o‘z o‘rnini egallaganda, bolalar nutqidagi ikki so‘zli ifodalar analogik strukturaga ega bo‘ladi (7).

Grinfild va Jukova ifodalanadigan situatsiya elementini tanlash qanday kechishi masalasi bilan maxsus shug'ullanadilar va bola uchun elementning (noma'lumligi, yangiligi) informativligiga, perseptiv ayrimligiga, subyektiv afzalligiga (boshqa tadqiqotchilarning perseptiv ayrimlik prinsipiga asoslangan holda: masalan, suratli alpbomni ko'zdan kechirayotgan bola hamma vaqt nima tasvirlanishiga qaramay *koptok* deb ko'rsatadi) bog'liq deb ta'kidlaydilar (10).

Bunda muhim subyektiv ayrimlikning birinchi prinsipi nutqiy qatorlashish sanaladi (eslatib o'tamizki, subyektiv ma'noni bunda L. S. Vigotskiy terminiga muvofiq ma'noviy qatorlashish deb atash mumkin) (6).

Agar Grinfild va Smit misollariga muvofiq bolalar nutqidagi bir so'zli ifodalarning mundarijasiga murojaat qilinsa, ularda ayrim takrorlanuvchi semantik rolni uchratishimiz mumkin, shuningdek, bir so'zning o'zi situatsiyaga bog'liq holda turli vazifani bajarishi mumkin (5, 55).

Misol sifatida bolalar nutqidagi quyidagi holatni ko'rsatish mumkin: Gavharoy "*sandiq*" so'zini bir o'rinda predmetni atash, ikkinchi o'rinda o'yinchoq sandiqning orqasiga tushib ketganligini ifodalash maqsadida qo'llaydi.

Grinfild va Smit tahlillariga muvofiq bolalar bir so'zli ifodalar bosqichida bir so'zni quyidagi semantik rolda qo'llaydilar (5):

1. **Agens**, 2. **Obyekt, harakat**. 3. **Resipiyent** (kimga?). 4. **Egasi** (kimmiki?). 5. **Harakat o'rni**. Bu tasnifning asosida Ch. Fillmorning ichki kelishiklar g'oyasi yotadi (4).

Garchi ayrim holatlarni qo'llash tasnifi ixtiyoriy deb tan olingan bo'lsa-da, shuningdek, Grinfild va Smitlarning fikricha, agar bola otasining oyoq tovushini eshitib, keyin uni ko'rgandan so'ng "*dada*" deb aytsa, birinchi holatdagi "*dada*" **agens** funksiyasini, ikkinchi o'rinda **obyekt** vazifasini bajaradi, biroq hech ikkilanishsiz aytish kerakki, bolalar bir so'zli ifodalarning so'nggi bosqichlariga borib, bir qancha semantik funksiyalarni farqlay boshlaydilar. Bu, ayniqsa, yuqorida qayd etilgan semantik funksiya tartibiga mos tushadigan ulardagi dastlabki ikki so'zli ifodalarda aniq ko'rinadi.

Bunda so'z tartibining semantik funksiyalarga bog'liqligida ularning ifodalardagi sintaktik tashkillanish roli haqida gap boradi.

M. Bouyermannning ma'lumotiga ko'ra, uning katta qizining nutqida **agens** semantik funksiyasi bilan hamma vaqt **harakat** va **obyekt**ni nomlashda muvofiqlik ko'rinadi.

Grinfild va Jukovalarning yuqorida qayd etilgan maqolalarida D. Xorganning bir so'zli ifodalardan ikki so'zli (gaplar uzunligi 1,08 dan 1,59 gacha bo'lgan morfemalar) ifodalarga o'tish bosqichidagi bolalar tomonidan suratlarining izohlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqoti yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Bolalar o'zining bir so'zli ifodalarda perseptiv ayrimlik prinsipiga asoslanadilar, ikki so'zli ifodalarning asosiy o'ziga xosligi esa, qayd etilgan agensdan (aktiv

harakat qiluvchi shaxs) obyekt (harakat yo‘naltirilgan predmet yoki shaxs)gacha bo‘lgan holatda ko‘rinadi.

Garchi agens perseptiv kam ajralmasa ham (masalan, real situatsiyada harakatlanuvchi element kamdan-kam fondan ajraladi) semantik roldagi qatorlashuv, ehtimol, perseptiv (subyektiv ma‘noviy) jihat bilan genetik bog‘liqdir, biroq bu keyinchalik, albatta, o‘zining asosidan ajraladi va u bilan konkurensiyalashadi. Agens presuppozitsiyasi qat‘iy so‘z tartibiga ega bo‘lgan kattalar nutqining ta‘siri bilan izohlanishi mumkin, biroq u so‘z tartibi erkin bo‘lgan gaplashuvchi bolalar nutqida ham qat‘iy ravishda aniqlanadi. Masalan: “*Quyon*”; “*Sandiq*”; “*Tog‘a suv*” (Gavharoy nutqida).

Hatto dunyodagi obyektga aloqador tillarga taalluqli bo‘lgan tagalog tilida (bunday tillar J. Grinberg ma‘lumotiga ko‘ra, 2 % ni tashkil etadi) ham agens presuppozitsiyasiga ega bo‘lgan konstruksiyalar oson sanaladi. Tipologik jihatdan qat‘iy yoki erkin so‘z tartibiga ega tillarda gaplashuvidan qat‘iy nazar to‘rt yoshdagi bolalarda agensni ifodalovchi nom so‘z tartibining tayanchi sifatida belgilangan (8).

Bu ma‘lumotlarning barchasi bolalar nutqida sintaksisning qurilishida semantik funksiyalarning o‘rni balandligi haqida guvohlik beradi. Sintaktik kategoriya sifatida subyektini, ya‘ni egani to‘la egallashdan oldin uning proobrazi yoki aynan “topik” va agensni egallash yuz beradi. Sintaktik kategoriyalar sifatida fokusi bilan bog‘liq “topik” va “komment” hamda unga semantik funksiyalar bilan zid qo‘yiluvchi “agens” subyektiv tanlanishni ifodalasa, ikkinchi — obyektiv qatorlashuv (semantik tilni tashuvchi situatsiya vositasi orqali ko‘radigan) qat‘iy kategorial to‘rni tashkil etadi. Sintaktik rivojlanishning quyidagi tasviri: ma‘noviy (“topik-komment”) — semantik (agens — harakat — obyekt) — tashqi (S — V — O) sintaktik mavjudlik — reallikning nazariy asoslanishidir. Bunda albatta, rang-barang ko‘rinishni nazarda tutamiz: ayrim bolalarda bu izchillik aniq kuzatilsa, ayrimlarida u qadar sezilarli emas. Masalan, M. Bauermanning ta‘kidlashicha, kichik qizida kattasidan farqli ravishda bir so‘zli ifodalarni tezda ancha puxta semantik sistemaga aylantirish holati kuzatiladi va uning ikki semantik gipotezaga” munosabati yaxshi bo‘lmaganligi seziladi.

Demak, ona tilini o‘zlashtirishning birinchi bosqichi bola nutqida tovush birikmalarining ma‘no bilan bog‘lanishidan boshlanadi. Yoki boshqacha aytganda, bu alohida bir so‘zdan tarkib topgan gapga teng bo‘lgan oddiy sintaktik butunlik to‘la hukmronlik qila boshlashi bilan xarakterlanadi. Shunga tayangan holda bolalar nutqining sintaktik xususiyatlarini yoritishda biz gaplarni tuzilish jihatdan ikkiga:

1. Bir so‘zdan tuzilgan gaplar.
2. Ikki so‘zdan tuzilgan gaplarga ajratamiz (11).

Bolalar nutqida talaffuz etiladigan so‘zlar yirik sintaktik butunliklardan uzilgan qism emas, balki o‘z ma‘nosi va intonatsiyasiga ko‘ra yaxlit gapdir. O‘z ma‘nosiga ko‘ra ular ma‘lum xabarni ifodalovchi tugal butunlikni tashkil etadi va bu bilan kattalar

nutqidagi gaplarga tenglashadi. Masalan, “*Ashsha*”, “*nanna*” soʻzlari kattalar nutqidagi “*Menga non bering*”, “*Non yeyman*”, boshqa oʻrinda esa, “*Bu non*” gapiga toʻgʻri keladi. Bola soatga ishora qilib, “*chiq-chiq*” (ana soat) deydi yoki kitobga intilib “*pitop*” deb talaffuz etadi yoki otasini koʻrsatib “*te*” deb chaqiradi va hokazo.

Bolalar nutqini tadqiq etuvchilar bola nutqidagi bunday dastlabki sintaktik bosqichlarni soʻz-gaplar sifatida taʼriflaydilar (2). Biz ham bunday sintaktik shakllarni bir soʻzdan tuzilgan gaplar yoki “soʻz-gaplar” deymiz. Bunday soʻz-gaplarning misoli sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Shaxsni ifodalovchi gaplar (“*oyi*”, “*dada*”, “*Raʼno*”, “*bolalay*”, “*xola*” va hokazo).
2. Hayvonlarni ifodalovchi gaplar (“*musuk*” (mushuk), “*baboʻv*” (it), “*ququ*” (tovuq), “*moʻmoʻ*” (sigir) kabi).
3. Tana aʼzolarini ifodalovchi soʻz-gaplar (“*quoq*” (quloq), “*qos*” (qosh), “*bunni*” (burun), “*qoʻl*” va hokazo).
4. Predmet nomlarini ifodalovchi gaplar (“*sogʻot*” (soat), “*tuv* yoki *umma*” (suv), “*qaqqa*” (qand), “*toy*” (choy) kabi).
5. Harakat-holatni ifodalovchi soʻz-gaplar (“*uxa*” (uxlayapti), “*yigʻa*” (yigʻalayapti), “*nanay*” (oʻyinga, raqsga tushyapti), “*tetti*” (ketdi), “*ati*” (aytdi) va hokazo).

Bunday gaplarda qoʻllaniluvchi soʻzlar ona tiliga xos grammatik formaga ega emas. Yaʼni bunday misollarda aynan bir soʻz oʻzgarishsiz, odatda tilda turli nutq boʻlaklari va turli soʻz formalari orqali beriladigan turli maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Baʼzi holatlarda bu ifodalar intonatsiyaga bogʻliq ravishda tushunarli boʻladi. Demak, bola nutqidagi bunday dastlabki soʻzlar amorf soʻz-oʻzaklar sanaladi. Bu bilan bogʻliq ravishda bolalar nutqidagi spesifik miqdordagi bolalarga xos amorf soʻzlarning (“*vov-vov*” (it), “*dit-dit*” (avtomobil), “*moʻmoʻ*” (sigir), “*boʻji*” (salbiy maʼnodagi soʻz) kabi) ifodalanishi ham ahamiyatlidir. Bunday soʻz-gaplar funksiyasidagi farqlari bilan xarakterlanuvchi alohida tiplarga ajratiladi; odatda ular tashqi intonasion farqqa ham ega boʻladi. Masalan:

1. Ayrim gaplar talab, istakni (buyruq gaplar) ifodalaydi (“*qaqqa!*” (qand ber!), “*Bey!*” (non ber!) kabi);
2. Boshqalari nomlanayotgan predmetlar yoki xodisalarning mavjudligini ifodalaydi. Masalan, “*oʻytoq*” (oʻrtoq), “*uta*” (uka), “*omma*” (bu-olma), “*oʻqi*” (bu- kitob) kabi;
3. Uchinchi tipdagi gaplar bola chaqirayotgan shaxslarni: “*opa*”, “*aya*” (oyi keling!) (chaqirib ohangi bilan) ifodalaydi.

Bolalar nutqida gap rivojlanishining dastlabki qadami bir gapda ikki soʻzning birikishidan iborat boʻladi. Ularning oʻziga xosligi sifatida bunday gaplarning bola tomonidan kattalar nutqini takrorlash emas, balki mustaqil qurish orqali xosil qilinishini koʻrsatish lozim.

Bolalar nutqidagi ikki soʻzli gaplar intonasion tomondan kattalar nutqidagi gapga mos tushadi. Talaffuzda har ikki soʻz oʻzaro

birlashadi va bu birikma intonasion tugallikka ega bo'ladi. Bu xil gaplarning quyidagi tiplari bor:

1. Buyruq gaplar: "*Omma bey!*" (olma bering!), "*Tatek kiy!*" (tuflyamni kiygizing!) kabi;

2. U yoki bu xodisa haqida xabar beruvchi darak gaplar: "*Babo 'vo 'vvo 'v*" (it xuryapti), "*Aka ditdit*" (akam mashinada keldi) va hokazo.

Bunday xabarlar u yoki bu darajada emosional bo'yoqdorlikka ega bo'ladi. Bunday gaplar tarkibiga kiruvchi alohida so'zlarning xususiyatiga ko'ra uncha katta bo'lmagan farqlovchi ma'noviy kategoriyalarga guruhlanadi:

1. Nutq qaratilgan shaxsni ifodalovchi gaplar: "*Dada, utta*" (dada ko'taring), "*Aya, ashsha*" (qornim ochdi) kabi;

2. Harakat subyektini ifodalovchi gaplar: "*Ququ yo'q*" (tovuq yo'qoldi), "*Uta uxa-uxa*" (ukam uxlayapti) kabi;

3. Harakat yoki predmet holati (keltirilgan misollar);

4. Obyekt harakati: "*Qaqqa bey!*" (qand bering!), "*Nanna bey!*" (non bering!) va hokazo;

5. Harakat o'rni: "*Uta utta*" (ukam ketdi), "*Nanna sitol*" (non stolning ustida) va hokazo.

Subyekt, obyekt yoki harakat o'rni ko'rsatilayotganda, fe'lining tushirilishi ikki so'zning birikishidan ko'ra kattaroq birikuvni ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishida so'zlar o'rtasidagi o'zaro munosabat asta-sekin o'zining tashqi grammatik ifodasiga ega bo'la boshlaydi. Bu so'z o'zgarishi vositasida amalga oshadi. So'z-o'zaklar o'rnida endi ma'noviy elementlarga to'g'ri keluvchi so'zlar paydo bo'la boshlaydi; bu elementlar gaplarda so'zlarning o'zaro munosabatidagi sintaktik ifoda uchun xizmat qiladi. Gaplarning bunday grammatikalanishi uzoq muddatli bosqichda amalga oshadi. Bu bosqichning farqlovchi jihati gaplardagi ma'lum sintaktik (va semantik) munosabatning ifodalanishidagi tebranishlarda ko'rinadi. Masalan, harakat obyektining o'zgarmas formasi orqali ifodalanishi mumkin: "*Opa pitop o'qi* (opam kitob o'qiyapti)", "*Aya yashshi ko'yaman* (oyimni yaxshi ko'raman)" kabi. Gaplardagi bunday holatlar, ya'ni bir sintaktik munosabat grammatik ifodasiga ega bo'lishi yoki aksincha bo'lmasligi kam uchraydi: "*O'ytoq sitol o'tiy*" (o'rtoq stulda o'tiribdi) kabi. Ushbu gapda hozirgi zamon formasi egaga moslashgan, ot esa gapning boshida kelgan.

Bu bosqich uchun so'zlar bilan birga formasiz sof bolalarcha so'zlarni qo'llash ham xarakterlidir. Ularning qo'llanilishi shuningdek, gapning grammatik va semantik qurilishini buzadi. Masalan: "*aya, isipetim*" (aya, sovuq qotdim ma'nosida), "*ichim ketim yo'q?*" (aya, siz hech qayerga ketmaysizmi? ma'nosida), "*chaneni kim yirdi?*" (choynakni kim sindirdi? ma'nosida), "*nannani yitin!*" (nonni sindiring! ma'nosida) kabi. Bolalar nutqida yana shunday so'z-o'zaklar qo'llanadiki, ularning sinonimlari, ya'ni kattalar nutqidan olinadigan holatlar ham o'ziga xoslikni ifodalaydi. Masalan: "*miyov tet*", "*babo 'v xov-xov*" kabi.

Bunda bola o'zining dastlabki so'zini qo'llash orqali kattalarning qiziqishiga mos umum so'zlarni qo'shadi va qo'llaydi. Shuningdek, bola bir "tildan" aynan o'sha tilga "tarjima" ham qiladi; "uka uxa" birikmasini aytish bilan, "alla bo'li" birikmasini ham ortidan qo'shadi yoki (koptok) "to'p yo'q" birikmasini aytish bilan, "to'p yo'qodi" birikmasini takrorlaydi.

Bolalar nutqining rivojlanishida turli tipdagi gaplarning grammatizatsiyalanishi bir vaqtning o'zida ko'rinmaydi bu, albatta, alohida grammatik kategoriyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Ularning ba'zilari erta o'zlashtiriladi, boshqalari esa aksincha, juda kech. Bu albatta, shaklsiz gaplar bosqichida qo'lga kiritiladi, shu sababli grammatik shakllanadigan gaplar o'z tarkibiga ko'ra anchagina murakkab va xilma-xil tuyuladi. Bolalar nutqining rivojlanishida bu juda tezlik bilan amalga oshadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bu bosqichning, ya'ni bir va ikki so'zli so'z-o'zakdan tuzilgan gaplar egallanishining yakuni taxminan bolaning ikkinchi yoshiga taqaladi. Bu yakun bola nutqida paydo bo'ladigan uch va to'rt so'zli gaplar bilan belgilanadi. Buning birinchi holati o'zida ikki so'zli gaplarning asosini tashkil qiluvchi inkor ma'nosini ifodalovchi so'z bilan murakkablashishni namoyon etadi. Masalan: "senda qaqqqa yo'q" (senga qand yo'q), "senda berim yo'q" (senga bermayman), "uxamim" (uxlamayman), "Aya, endi qimim yo'q" (Aya, endi boshqa qilmayman) kabi. Bunday gaplar o'z tarkibiga ko'ra subyekt va obyekt harakatining ifodasidan tashkil topgan o'ziga xos ikki so'zli gaplarning rivojlanishiga yordam beradi: ulardagi harakat ifodasining tushirilishi endi ona tilidagi odatiy so'z tartibiga mos tushmaydigan harakat obyektining nomi ortidan joylashtiriladi. Bu gaplardagi so'z tartibi bola nutqidagi gaplarning tarqqiyoti sifatida xarakterlanadi:

1. "Aya";
2. "Aya pitop" (bu kitob);
3. "Aya pitop o'qi" (oyim kitob o'qiyapti).

Bunda yangi qatorni namoyon etuvchi so'z, oxirgi o'rinni egallaydi. Bu esa so'z-gaplar ketidan paydo bo'ladigan ikki yoki uch shaklsiz so'zlardan tuzilgan gaplarning dastlabki rivojlanishi sintetik holatda: bola nutqidagi dastlabki element — so'zlarning birlashishi ko'rinishida kechishining ko'rsatkichi sanaladi.

So'z-gaplarni ikki yoki undan ortiq ma'noli qismlarga ajratish imkoni yo'q. Chunki, bir tomondan, bunday gaplar bola tomonidan hali qo'llanilmaydi, ikkinchi tomondan — qo'llanilayotgan so'zlar morfologik elementlarga mos tushadi, deya olmaymiz, shuning uchun ularni amorf so'z-o'zaklar sifatida qarash lozim. So'zlarni morfologik elementlarga ajratmaslik shundan ham kelib chiqadiki, bola bir o'zakka bog'lanuvchi o'zaro munosabatdagi shakllarni mutlaqo qo'llamaydi: bunday so'zlar o'zining turli fonetik ko'rinishida qo'llanilishiga qaramay o'zgarishsiz sanaladi. Bunda bola nutqida qo'llaniladigan so'zlarning fonetik ko'rinishi ko'pincha qanday holatlarda ma'nosiga ko'ra qanday qo'llanishi, lozim bo'lgan birikma qanday o'rin tutishiga e'tibor berish lozim. Shuningdek,

otlar odatda, bosh kelishik formasida, ya'ni atov gaplarga mos shaklda, fe'llar esa — buyruq gaplarga mos keluvchi buyruq mayli va infinitiv formada qo'llaniladi. So'zlardagi morfologik kategoriyalarning mavjud emasligini ko'rsatuvchi misollar sifatida quyidagi holatlarni keltirish mumkin:

1. So'zlar o'rinsiz, til normalariga nomuvofiq formalarda qo'llanadi. Masalan: “*dada*”, “*Aya*”, “*Xola*”, “*Guli*” kabi shakllar — “*dadamniki*”, “*oyimniki*” va hokazolar o'rnida — bu shaxslarga taalluqli buyumlarni ko'rsatishda qo'llanadi. Ya'ni bola xolasini ko'rsatib, “*xola*” deydi. Ikkinchi holatda esa xolasining sumkasiga ishora qilib, “*xola*”, deb bu sumka xolasiniki ekanligini ko'rsatadi. Yoki bola sandiqni “*sandi*” deb atagan holda, ikkinchi holatda, o'yinchog'ining sandiq va devor oralig'iga tushib ketganini ko'rsatadi va iltimos ohangi-ma'nosida yana “*sandi*” deb ataydi va hokazo;

2. Bola tomonidan gap tipida qo'llangan va tayyor formada o'zlashtirilgan so'z, masalan: “*sut*” so'zi (ko'rinishidan “*sut ichasanmi*”, “*ma sut*” frazalaridan olingan) shuningdek, “*mana sut*”, “*bu sut*” kabi ma'nolarni anglatuvchi gaplarga ham teng keladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bolaning ikkinchi yoshidan so'ng uning nutqi intensiv ravishda juda tez o'sadi. Natijada bola nutqida qo'llaniluvchi gaplardagi so'zlar grammatik strukturaga ega bo'la boshlaydi; gapning maqsadga ko'ra turlari ham aynan mana shu davrda yuzaga keladi. Bola nutqida dastlab formasiz qo'llaniladigan buyruq gaplar (“*bey!*” (ber!), “*te!*” (kel!), “*o!*” (ol!) kabi) endi maxsus shakllar orqali ifodalana boshlaydi. Bunda hal qiluvchi kategorial buyruq o'ziga xos buyruq ohangi — infinitiv shakl orqali ifodalanadi: “*at!*” (ayt!), “*op te!*” (olib kel!). Fe'l kategoriyalaridagi dastlabki infinitiv, endi shaklga aylanadi. Odatiy **buyruq gaplar** endi buyruq mayli orqali ifodalana boshlaydi: “*obey!*” (olib bering!), “*bey!*” (ber!), “*qaya!*” (qarang!) va hokazo.

Buyruq maylining maxsus formalari, shuningdek, maxsus buyruqni ifodalovchi so'zlar (“*bo'!*”; “*kel!*” (kel, qarachi) “*-chi*”, “*doim*”, “*Hay doim qaqqqa optesin*” kabilar) buyruq maylini hosil qiladi.

Maxsus grammatik ifoda vositalariga ega bo'lmagan undov gaplar intonatsiyaning xilma-xilligi bilan xarakterlana boshlaydi. Natijada ularda undov (ohangidagi) olmoshlar, ravish va yuklamalar yuzaga keladi: “*Mana o'yinchoqlay!*”; “*Alale!*” (uyat!); “*Nimcha qoong'i*” (namuncha qorong'u!) kabi.

Tasdiq gaplar bolalar nutqida ikki so'zli gaplar bosqichida yuzaga keladi. Dastlab ular subyekt va uning harakati yoki holati birikmasini ifodalaydi. Masalan, “*Bolla yuguy*” (bolalar yugurishmoqda); “*Aya ash opke*” (oyim ovqat olib kelyapti); “*Sog'ot chiq-chiq*” (soat chiqqillayapti) kabi.

Inkor gaplar bolalar nutqida tasdiq gaplarga nisbatan ancha kech paydo bo'ladi va ularning ifodalanishi ma'lum qiyinchiliklarni namoyon qiladi. Dastlab bola nutqida qo'llaniluvchi bunday gaplarda inkor tushiriladi. Bu ayniqsa, “*kerak emas*” tipidagi inkorning erta bosqichda aynan inkorni emas, balki xohlamaslikni ifodalashda

“*keyek*” holida qo‘llanilishida yanada aniqroq ko‘rinadi. “*Keyek*” so‘zi dastlab faqat shu ma‘noda qo‘llaniladi va bola nutqida xarakterlovchi intonatsiya va ishora orqali ifodalanadi. Bola nutqi rivojlanishining keyingi bosqichlarida *-mas* inkor shakli *-mash* (ko‘rinishida) hosil bo‘ladi va “*keyemash*” shaklida qo‘llanila boshlaydi. Boshqa holatlarda tushirilgan inkor o‘rnida “yo‘q” qo‘llaniladi va u tasdiq ko‘rinishiga ega bo‘lgan gapga qo‘shiladi. Masalan, “*Yo‘q, bey qalam*” (qalamni bermayman); “*Yo‘q, uxa*” (uxlamayman) kabi.

Bolalar nutqida “yo‘q” so‘zi dastlab quyidagi holatlarda inkor o‘rnida qo‘llaniladi:

a) qachonki nimaningdir mavjud emasligiga ishora qilinsa: “*Yo‘q kim*” (hech kim); “*Yo‘q babo*” (it emas); “*Men kosiq yo‘q*” (menda qoshiq yo‘q) kabi;

b) o‘zganing fikri inkor etilib, o‘z fikri ma‘qullanganda: “*Yo‘q, dada ish tetti*” (yo‘q, dadam ishga ketdi); “*Sen boy yo‘q, he!*” (sen bormaysan), “*Yo‘q, men tish yu xe*” (men tishimni yuvaman), “*Yo‘q, men teon gapish, xe*” (yo‘q, men telefonda gaplashaman) kabi.

Kichik yoshdagi bolalar nutqida **so‘roq gaplar** taxminan bir yarim yoshlarida ko‘rina boshlaydi. So‘roq gaplarning turli ko‘rinishlari bola nutqida darhol o‘z ifodasini topmaydi, ya‘ni dastlab intonatsiya orqali ifodalanadigan so‘roqlar paydo bo‘ladi va ularda ifodalangan fikr adresatning munosabatini bilishga qaratiladi. Masalan, “*Aya qaqqqa apke?*” (oyim qand olib keldimi?); “*Babo v tetti?*” (it keldimi?); “*Opa alo?*” (opam telefonda gaplashyaptimi?); “*Ashsha qivichimi?*” (ovqat tayyorlamaysizmi?), “*Aya, mia taq-taq?*” (Aya, nima taqqillayapti?) va hokazo.

Bunday gaplar tarkibida so‘roq intonatsiyasi bilan ifodalangan -a so‘roq yuklamasi ko‘rina boshlaydi. Ko‘p hollarda bunday so‘roq gaplar faqat mana shu yuklama talaffuzi orqali beriladi, gapning o‘zi esa so‘roq ohangiga ega bo‘lmaydi. Masalan, “*Men Tosken bor-a?*” (men Toshkentga boraman-a?); “*Men ash ye-a?*” (men ovqat yedim-a?); “*Men bolla o‘yna-a?*” (men bolalar bilan o‘ynayman-a?); “*Dada, toyg‘izda “t” vitamin bor-a?*” (dada, tarvuzda “t” vitamini bor-a?) kabi.

Bunday so‘roq gaplarda so‘roq ohangi bilan birga tasdiq ma‘nosining ham ifodalanishi ko‘rinadi. So‘roq so‘zlari bilan ifodalangan so‘roq gaplar yuqorida ko‘rilgan so‘roq gaplardan ma‘lum javobni talab etishi bilan farq qiladi. Qayd etilgan gaplar so‘zlovchi va tinglovchiga ma‘lum bo‘lgan fikrga aynan javob berishni emas, balki rad etish yoki rozilik bildirishni talab etadi va bunday gaplarga faqat “*ha*” yoki “*yo‘q*” javoblari talab etiladi. So‘roq so‘zlari bilan ifodalanadigan so‘roq gaplar so‘zlovchiga ma‘lum bo‘lmagan o‘rin, vaqt, sabab, maqsad kabi ma‘nolarni ifodalashiga ko‘ra bir qancha maqsadlarda qo‘llaniladi. Bunday gaplar ular anglatgan ma‘nosiga bog‘liq ravishda paydo bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, ta‘kid, so‘roq, darak, his-hayajon, buyruqni ifodalovchi barcha gaplarning tiplari bolalar nutqida ancha erta paydo bo‘ladi. Ayni vaqtda bu gap tiplarining alohida turlari

ularning ma'nosidagi murakkablikka bog'liq ravishda kechroq ifodalanishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахутина Т.В. Порождение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса. — М., 1989. — 213 с.
2. Богородицкий А.В. Общий курс русской грамматики. — М., 1935. — 203 с.
3. Брунер Дж. Онтогенез речевых актов // Психоллингвистика. — М., 1984. — С. 21–49.
4. Филлмор Ч. Дело о падеже// Новое в зарубежной лингвистике. — М., 1981. — Вып.10. — С. 369–495.
5. Greenfield P.M., Smit J.H. The structure of communication in early language development. — N.Y., 1979. — 238 p.
6. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. — М., 1961. — 353 с.
7. Исенина Е.И. Дословесный период развития речи у детей. — Саратов, 1986. — 162 с.
8. Кемпе В. Ориентация на порядок слов в понимании предложений у русских и немецких детей. Дипл. раб. — МГУ, 1985. — 195 с.
9. Kohlberg L., Yeger J., Hjentholm E., Private Speech four studies and a review of theories // Child development, 1968. — 39 p.
10. Потемня А.А. Из записок по русской грамматике. Т.1, 2. — М., 1958. — 536 с.
11. Sayidiraximova N. Bolalar nutqining til ontogenezini o'rganishdagi ahamiyati / Nauka, obrazovaniye, texnika. — Osh: KUU, 2001. — № 2.
12. Sayidiraximova N. Maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalalar nutqining lingvistik tadqiqi. Fil.fan.nomz.diss... — Toshkent, 2004. — 126 b.

References

1. Axutina T.V. *Poroydeniye rechi. Neyrolingvisticheskiy analiz sintaksisa* (Poroydeniye Speeches. Non-linguistic Analysis of Syntax), Moscow, 1989, 213 p.
2. Bogorodiskiy A.V. *Obshiy kurs russkoy grammatiki* (General Course of Russian Grammar), Moscow, 1935, 203 p.
3. Bruner Dj. *Psixolingvistika* (Psycholinguistics), Moscow, 1984, pp. 21–49.
4. Fillmor Ch. *Novoye v zarubejnoj lingvistike, Vip.10* (New in Foreign Linguistics), Moscow, 1981, pp. 369–495.
5. Greenfield P.M., Smit J.H. *The structure of communication in early language development*, N.Y., 1979, 238 p.
6. Gvozdev A.N. *Voprosi izucheniya detskoy rechi* (Questions of the Study of Children's Speech), Moscow, 1961, 353 p.
7. Isenina Ye.I. *Doslovesniy period razvitiya rechi u detey* (The Verbatim Period of Speech Development in Children), Moscow, 1989, 162 p.

8. Kems V. *Oriyentatsiya na poryadok slov v ponimanii predlojeniy u russkix i nemeskix detey*, Dipl. rab. MGU (Orientation to Word Order in the Understanding of Prepositions in Russian and German Children), Moscow, 1985, 195 p.
9. Kohlberg L., Yeger J., Hjentholm E., *Private Speech four studies and ariview of theories*, Child development, 1968, 39 p.
10. Potebnya A.A. *Iz zapisok po russkoy grammatike. T.1,2* (From Notes on Russian Grammar. Vol.1,2.), Moscow 1958, 536 p.
11. Sayidiraximova N. *Nauka, obrazovaniye, texnika* (The Science, Education, Technology), Osh: KUU, 2001, No. 2.
12. Sayidiraximova N. *Maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalalar nutqining lingvistik tadqiqi. Fil.fan.nomz.diss...* (Linguistic Study of Speech of Uzbek children of Preschool Age), candidate's thesis, Tashkent, 2004, 126 p.